

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТА'ЛИМ ТИЗИМИДАГИ РАҲБАР ХОДИМЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ БОШҚАРУВ УСУЛЛАРИ ВА РАҲБАРЛИК ВАЗИФАЛАРИ

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

31-sonli DMTT direktori

Boltayeva Shohsanam Abdusamad qizi

Annatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rejalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan sanaladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqarishning yangi innovatsion usullari to'grisida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В данной статье управление и планирование организационной дошкольного образования рассматривается как одна из актуальных задач современности. В статье высказываются мнения о новых инновационных методах лидерства и управления в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: In this article, management and planning of pre-school education organizations is considered one of the urgent tasks of today. The article expresses opinions on new innovative methods of leadership and management in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: rahbar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, boshqaruv, ta'lim tizimi, metodik boshqarish, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: лидер, дошкольные образовательные организации, менеджмент, образовательная система, методическое руководство, инновационная деятельность, педагогический процесс.

Key words: leader, preschool educational organizations, management, educational system, methodical management, innovative activity, pedagogical process.

Rahbarlik – lavozim, mansab emas, avvalo, odamlarga xizmat qilish mas’uliyat ekanini barcha to‘g‘ri tushunib olmog‘i zarur. Rahbar degani hammadan ko‘proq ishlab, fuqarolar saodati va yurti ravnaqi uchun yelib yuguradigan fidoiy inson bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025 yildagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-51-son Farmoni, asosan maktabgacha va maktab ta’limining barcha darajasidagi boshqaruv tuzilmalariga yuqori salohiyatli, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakaga ega tashabbuskor nomzodlarni tanlov asosida jalb qilish, sifatli ta’lim berishda respublika, hududiy, tuman va shahar darajasida yaxlit vertikal boshqaruv tizimini shakllantirish haqida aytib o‘tildi. Tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagogining o‘ziga xosliklari, yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olishi kabilarda yorqin namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani direktorning qo‘yilgan talablarga qanchalik darajada javob bera olishi belgilaydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak ma’suliyatni to‘la anglab yetishi lozim. Faqatgina maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini muhim qadriyat ekanligini tushunibgina qolmasdan, balki bolaning rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallab borishi lozim. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojlanishining uni o‘rab turgan atrof-muhit bilan bog‘liqligidir.

Boshqaruvning uch xil vositalari bo‘lib, birinchisi, tashkilot, boshqaruv ierarxiyasidir, Bu yerda asosiy vosita - bu odamga yuqoridan ta‘sir qilish (faoliyatni rag‘batlantirish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, shuningdek taqsimlashning asosiy funksiyalaridan foydalanish) bo‘ylik va boshqalar.). Ikkinchisi - boshqaruv madaniyati, bularga jamiyat, tashkilot, odamlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va tan olingan qadriyatlar, ijtimoiy normalar, munosabatlar, xattiharakatlar majmuyi. Uchinchisi esa – bozor, bozor munosabatlari, bular. mahsulot va xizmatlarni

sotish va sotib olishga, sotuvchi va xaridor manfaatlari balansiga asoslangan boshqaruvdir.

Har bir rahbar quyidagilarga amal qilishi kerak:

- ✚ Maktabgacha ta'lim esa o'z navbatida quyidagi vazifalarni ko'zda tutgan holda ish olib boradi:
- ✚ Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- ✚ Bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- ✚ Bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- ✚ Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- ✚ Bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- ✚ Bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

Hozirgi sharoitda maktabgacha ta'lim tizimi rahbarlari, mutaxassislarining samarali faoliyat yuritishlari uchun boshqaruvni va ushbu idoralar xodimlari mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslarini bilish g'oyat muhimdir.

Shu o'rinda yana bir karra rahbarlik mas'uliyati haqida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Chunki bugun islohotning qay darajada amalga oshishi rahbarlarning dunyoqarashiga, halol va pok, tadbirkor va tashabbuskor bo'lishiga bog'liqdir.

Ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi bu ularning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy yetukligidan iborat. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy



kismlari bir-birini to'ldiradi, o'zaro uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlar bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo'llaniladi. Shu sababli MTT direktorlarining ilmiy-metodik tayyorgarligi

kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida asosiy o'rinni egallaydi.

Amaldagi meʼyoriy hujjatlarda belgilangan taʼlim sohasidagi davlat siyosatining tamoyillaridan kelib chiqqan holda taʼlim muassasalarida oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozigi tez oʻzgarayotgan bir davrda MTT boshqaruv kadrlari har tomonlama intellektual salohiyatli, oʻz faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar sifatida faoliyat olib borishini davrning oʻzi taqozo etmoqda. Chunki, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-eʼtiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan taʼlim tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi.

Har qanday rahbar yangilik kiritishda– bu printsipial jihatdan yangi tarkibiy qismni yaratish va keyinchalik amalga oshirishdan boshqa narsa emas, buning natijasida atrof –muhitda sifatli oʻzgarishlar roʻy beradi. Texnologiya, oʻz navbatida, maʼlum bir biznesda, hunarmandchilikda yoki sanʼatda qoʻllaniladigan turli xil texnikalar toʻplamidir. Shunday qilib, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar zamonaviy komponentlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan boʻlib, ularning asosiy maqsadi oʻquv jarayonini modernizatsiya qilishdir. Buning uchun bolalar bogʻchasidagi pedagogik jamoalar boshqa maktabgacha taʼlim tashkilotlaridan farqli oʻlaroq, bolalarni tarbiyalash va intellectual rivojlantirishning eng yangi modellarini ishlab chiqadilar. Pedagoglar kasbiy faoliyatlarida uslubiy vositalar, usullardan foydalanadilar va qabul qilingan modelga toʻla mos keladi. Kelajagimizni shakllantirish maktabgacha taʼlim tashkilotidan boshlanishi, aynan shu davrdagi bolalarni yaxshi bilimlar bilan ulgʻaytira olishimiz bilan bogʻliq ekan biz bu borada befarq boʻlolmaymiz. Maktabgacha taʼlim tashkilotiga hayotimizdagi eng ilgʻor oʻqituvchi, tarbiyachilarni joylashtirimiz va har bir taʼlim beruvchilarni tanlab talablarga javob bera oladigan kadrlarnigina olishimiz zarur. Shundagina biz bu sohada ilgʻor natijalarga ega boʻlishimizga ishonaman. Zamonaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlari tobora koʻproq foydalanilmoqda va ularni amalga oshirish natijasi oʻn

yildan ko‘proq vaqt davomida paydo bo‘ladi. Bugungi kunga qadar keng Vatanimizdagi bolalar bog‘chalarida qo‘llaniladigan yuzdan ortiq ta‘lim texnologiyalari mavjud.

Ular orasida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish lozim.

- ❖ sog‘liqni saqlash texnologiyalari;
- ❖ loyiha faoliyati bilan bog‘liq texnologiyalar;
- ❖ loyiha faoliyatida qo‘llaniladigan texnologiyalar;
- ❖ axborot –kommunikatsiya texnologiyalari;
- ❖ har bir shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar (shaxsga yo‘naltirilgan);
- ❖ o‘yin texnologiyalari deb ataladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta‘lim tashkilotlarini boshqarish ancha to‘liq va aniq belgilab berilgan va tavsiflangan. Maktabgacha ta‘limga kelsak, biz uni bir qismi deb hisoblaymiz mumkin. Demak, boshqaruv fanining barcha asosiy qoidalari, pedagogik menejment jumladan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini boshqarish uchun ham qo‘llaniladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta‘lim tizimining rivojlanish tarixining xususiyatlari va ko‘p qirraliligi, ichki fazilatlarini va xususiyatlarini ham maksimal darajada hisobga olish muhimdir. "Natijaga asoslangan boshqaruv" tushunchasining o‘zi tashkilotning barcha a‘zolari tomonidan belgilangan va kelishilgan natijalarga erishadigan boshqaruv va rivojlanish tizimi sifatida belgilanishi mumkin. Har bir rahbar o‘z maktabgacha ta‘lim tashkilotini rivojlantirishning asosiy maqsadlarini belgilab, pedagogik jamoa bilan birgalikda butun pedagogik jarayonni tashkil qiladi, ya‘ni u doimiy ravishda olingan natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan taqqoslaydi.

Boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta‘minlash, mavjud ma‘lumotlarni tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini bashorat qilish va qabul qilish, boshqaruv faoliyatini rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishdir. Ta‘limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o‘tkazish kerak.

Xususan bugungi zamon talablariga ko‘ra ta‘lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar bilan yechish mumkin:

- Boshqaruvning tarkibiy qisimlari, maqsad va vazifalarini tog‘ri tanlash;
- Bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o‘rganib chiqish va tahlil qilish;
- Kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish;
- Ta‘lim va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish;
- Jamiyatimizda tubdan isloh qilingan ta‘lim tizimini yaratish;

Bu vaziyat bo‘yicha aniq natijalar uchun tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Natijaga asoslangan boshqaruv, dastlab jamoaga maqsadga erishish uchun barcha resurslar bilan ta‘minlangan haqiqiy berilgan deb taxmin qilanadi. Bunday resurslarga odamlar, vaqt, moliya, moddiy-texnika bazasi, texnologiyalar, usullar va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruvchi va boshqariluvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, samimiy munosabatlar ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyundagi PQ-5144-son qarori.
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova Maktabgacha pedagogika T-“Ma‘naviyat” 2018y.
3. Tretyakov P.I. "Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish", M., UTs "Perspektiva", 2010y.
4. Рахматуллаева, П. М., & Махамова, М. А. (2022). Yoshlar ta'lim sifatini oshirishda motivatsiyaning o'rni yoxud ulkan maqsadlar sari dastlabki qadam. Central Asian Research Journal
5. Karimova N.Q “Maktabgacha ta‘lim muassalari boshqaruvining dolzarb muammolari”3-4B(2021)